

SADRIDDIN AYNIYNING “SUDXO’RNING O’LIMI” ASARIDAGI
TOPONIMLARNING ETIMOLOGIYASI

Odinayeva Mohinur

Buxoro davlat universiteti, Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi magistratura bitiruvchisi
Mustaqil tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17530583>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sadridin Ayniyning “Sudxo’rning o’limi” qissasidagi toponimlar va ularning etimologiyasi tahlil qilingan. Toponimlarning madaniy va tarixiy kontekstga bog‘liqligi ko‘rsatilib, adabiy matnni chuqurroq tushunishga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: toponim, etimologiya, Sudxo’rning o’limi, qissa, adabiy tahlil.

Аннотация. В данной статье анализируются топонимы и их этимология в повести Садриддина Айни «Смерть ростовщика». Показывается зависимость топонимов от культурно-исторического контекста и подчёркивается их роль в более глубоком понимании художественного текста.

Ключевые слова: топоним, этимология, «Смерть ростовщика», повесть, литературный анализ.

Abstract. This article analyzes the toponyms and their etymology in Sadridin Ayni's story "The Death of the Usurer". It shows the dependence of toponyms on the cultural and historical context and emphasizes that they serve to provide a deeper understanding of the literary text.

Keywords: toponym, etymology, The Death of the Usurer, story, literary analysis.

Sobiq sho‘ro davlati parchalanib ketgandan keyin joy nomlari milliy qadriyat qatlamlaridan biri sifatida qaralib, mustaqil toponimik siyosat yurgizila boshlandi, xalq, tarixi, madaniyati, tiliga aloqador bo‘lmagan shahar va qishloqlar, ko‘chalar va boshqa geografik obyektlarning nomlari o‘zgartirila boshlandi, tarixiy nomlar tiklandi, qayta nomlandi.

Toponimlar xalq ijodi mahsuloti o‘laroq xalq kabi sodda, oddiy, hamma uchun tushunarli bo‘lmasa, real haqiqatni aks ettirmasa, uzoq vaqt yashay olmaydi.¹

Sadridin Ayniyning “Sudxo’rning o’limi” asaridagi toponimlar etimologiyasi bilan tanishamiz:

Azizobod - “Aziz qishlog‘i” demakdir. XII-XIII asrlarda ijod qilib, 10 jildlik “Mu’jam ul-buldon” ni tuzgan arab geografi va filologi Yoqut Hamaviy shahar-qishloqlarning nomlari tarkibida keladigan “obod” unsuri fors tilida “aholi punkti” ma’nosini bildiradi.²

Buxoro – shahar. Shahar nomining kelib chiqishi haqida turli fikrlar bor. Yozma manbalarda keltirilishicha, Buxoro turli nomlar bilan mashhur bo‘lgan: No‘mijkat, Madinatus Sufriya, Madinatus Tujjor va boshqalar. Ayrim manbalarga ko‘ra, shahar turk qabilasiga mansub Buxorxudot ismli kishi nomiga qo‘yilgan. Buxoro forsha (kishi ismi) va roh “yo‘l” so‘zlarining qo‘shilishidan tashkil topgan. Talaffuzni yengillatish maqsadida Buxoro deb atalgan izoh ham bor. Toponimning eng ko‘p tarqalgan talqini Sanskrit va so‘g‘d tili asosidadir. Buxoro sanskritcha Vixara so‘zi bilan aloqador bo‘lib, “monastr, ibodatxona, haram” degan ma’noni beradi.

¹ Suyun Qorayev. Toponimika. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. –B.23.

² Suyun Qorayev. Ko‘rsatilgan manba –B.25.

So'g'dcha parxar demakdir. Ko'pchilik tadqiqotchilar shu keyingi izohni ma'qul topadilar. Buxoro shahriga Suyun Qorayevning "Toponimika" asarida "Azim shahar, Movarounnahrning eng obod shahri" degan izoh beriladi.

Bo'lmaxo'ron – tumanning Istiqbol mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi aholi punkti nomi. Taxminlarga ko'ra, qishloq aholisining ko'pchiligi "bo'lama kochi" va bo'tqaga o'xshash ovqatni ko'p iste'mol qilishgan. Chetdan kelgan kishilar bo'lamani ko'p iste'mol qiluvchilar "bo'lamaxo'ronlar" deb atashgan. Z.Madrahimov kishilarning xo'jalik faoliyati, mehnat taqsimotini ko'rsatadigan qadimgi kasb-hunar nomlari bilan bog'liq oykonimlarga misol keltirar ekan,

Bilamixchi (atala- bo'lamiq sotuvchilar) toponimini qayd etgan.³

Devonbegi – xonaqoh. Devonbegi "devon (hukumat idorasi) boshlig'i" demakdir. O'rta asrlarda soliq yig'uvchi muassasa boshlig'i, keyinchalik esa unga mamlakatning barcha moliya ishlari topshirilgan. Xususan, Xiva xonligida devonbegilar ko'p bo'lgan, ular elchilik, yasovulchilik va boshqa ishlarni bajargan. Ma'lum devonbegiga qarashli yerlar uning nomi bilan yuritilgan.⁴

Denov – O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida uchraydigan ushbu nom negizidagi "deh" so'zi asli qadimiy forsiy "dah" – o'lka, viloyat, yurt so'ziga borib taqaladi va toponimlar tarkibida deh, de, di, dek, deg, dev, dey shakllarida uchraydi.

Deh- qishloq, nav- yangi, ya'ni yangi qishloq. Boshqa qishloqlarga nisbatan yangi qurilgan qishloq ma'nosini beradi. Denavning yangiligi unga asos solingan davrda, unga nom qo'yilayotgan davrga tegishlidir. Hozirda esa u tarixiy toponimlar sirasiga kiradi. Yonidagi shaharcha qishloqdan keyin so'nggi davrda qurilgani uchun shu nom bilan atalgan.⁵

Govkushon – mahalla nomi. Bu toponim tojik tili asosida ikki qismga bo'lib izohlanadi, ya'ni gov- "sigir", kush- so'yimoq ma'nosidagi "kushidan - fe'lining hozirgi zamon asosi", ushbu toponim sigir so'yuvchilar degan ma'noni bildiradi, ya'ni toponim kasb nomi bilan bog'liq.

Ko'kaldosh- madrasa, madrasani Buxoro xonining noibi Qulbobo Ko'kaldosh XVI asrda qurdirgan. Ko'kaldosh- ko'krakdosh, ya'ni asli begona bo'lsa ham bir onani emib qarindoshlashgan kishilar ma'nosini bildiradi.

Sangsabz- qishloq nomi, sang- "tosh", sabz- "yashil", "ko'kalamzor joy", "bog'-u rog' " ma'nolariga ega. Bu joy nomining ma'nosini "yashil tosh", "toshloqdagi bog'-u rog' " tarzida sharhlash mumkin.⁶

Sarrofon- hammom nomi, sarrof-pul almashtiruvchi, pul maydalaydigan va valyuta almashtiradigan shaxs. O'rta Osiyoda sarroflik serdaromad kasb hisoblangan.⁷ Hammom nomi kasb nomidan olingan bo'lishi mumkin.

Salloxxona- darvoza nomi, salloh arabcha so'z bo'lib, "kushxonada mol so'yuvchi qassob" ma'nosini anglatadi. Darvoza nomi kasb nomidan olingan.

Xitoyon- chorbog' nomi, xitoy+on, ya'ni xitoylar degan ma'noni anglatadi. Xitoy qavmiga mansub kishilar yashaydigan joy.

³ Adizova N. Yuqoridagi manba. –B.32.

⁴ Z.Do'simov., X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1977.-B.50

⁵ Adizova N. Yuqoridagi manba. –B.28.

⁶ Adizova N.Buxoro tumani toponimlarining etimologiyasi.Monografiya.Buxoro,2021.- B.42.

⁷Suyun Qorayev. Toponimika.– T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,2006.43-b.

Shirbadan- qishloq nomi, shir- “sut” degan ma’noni anglatadi, ya’ni “sut badan”, “oq rangli kishilar” deb sharhlash mumkin.

Asarda qo‘llangan toponimlar haqida shuni aytishimiz mumkinki, toponimlarda pozitivlik, geografik reallik aks etadi. Bulardagi informatsion potentsiallik kuchli bo‘ladi. Qissadagi joy nomlari o‘sha davrga xos bo‘lgan ma’lum bir voqelikdagi geografik reallikni ifodalab keladi. Buning sababi shundan iboratki, asar voqealari yuz bergan toponimlar tariximizda sodir bo‘lgan muhim voqealarni yoritishga xizmat qiladi. Asarda o‘rgangan toponimlarimiz ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi deb o‘ylaymiz.

Toponimlar til tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, uni alohida o‘rganish lozim.

Qissadagi joy nomlari xalqimiz tarixining ayrim jihatlarini ochib berishga xizmat qilish bilan birga bugun mavjud bo‘lgan nomlarning uzoq tarixga egaligidan ham dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adizova N. Buxoro tumani toponimlarining etimologiyasi. Monografiya. Buxoro, 2021. – B.42.
2. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б.6.
3. Sadriddin Ayniy. Sudxo‘rning o‘limi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.3.
4. Suyun Qorayev. Toponimika. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B.23.
5. Z.Do‘simov., X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1977. – B.50.